

## EKZISTENSIALIZM VA DETEKTIV ROMANINING FALSAFIY-BADIIY QOVUSHISHI: ILMIY-NAZARIY TAHLIL

**Xodjayeva Shaxnoza Baxtiyrovna,**  
*Osiyo Xalqaro Universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ekzistensializm falsafasi va detektiv janrning o‘zaro ta’siri tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. XX asr inqiroz muhitida – ikki jahon urushi orasidagi va undan keyingi davrda – shakllangan bu ikki sohaning qanday qilib bir-birini boyitgani va o‘zgartirgani ko‘rsatiladi. Seren Kyerkegor, Martin Xaydegger, Jan-Pol Sartr va Albert Kamyu g‘oyalari detektiv romaniga ta’sir mexanizmlari izchil o‘rganiladi. Klassik detektivdan ekzistensial detektiv janrgacha bo‘lgan rivojlanish yo‘li tahlil qilinib, jinoyatchi va tergovchi obrazlarining falsafiy chuqurlashishi ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** ekzistensializm, detektiv janr, absurd, erkinlik va mas’uliyat, Xaydegger, Sartr, Kamyu, Dostoyevskiy, o‘lim falsafasi, epistemologiya, inqiroz adabiyoti.

**Аннотация.** В данной статье анализируется взаимодействие философии экзистенциализма и детективного жанра с историко-философской точки зрения. Показывается, как эти две области, сформировавшиеся в кризисной атмосфере XX века – в период между двумя мировыми войнами и после них, – обогатили и преобразовали друг друга. Последовательно исследуются механизмы влияния идей Сёрена Кьеркегора, Мартина Хайдеггера, Жан-Поля Сартра и Альбера Камю на детективный роман. Прослеживается путь развития от классического детектива до экзистенциального детективного жанра, демонстрируется философское углубление образов преступника и следователя.

**Ключевые слова:** экзистенциализм, детективный жанр, абсурд, свобода и ответственность, Хайдеггер, Сартр, Камю, Достоевский, философия смерти, эпистемология, литература кризиса.

**Abstract.** This article analyzes the interaction between existentialist philosophy and the detective genre from a historical-philosophical perspective. It demonstrates how these two fields – philosophical thought and literary genre – formed in the crisis atmosphere of the 20th century, in the period between and after the two World Wars, and mutually enriched and transformed each other. The mechanisms through which the ideas of Søren Kierkegaard, Martin Heidegger, Jean-Paul Sartre, and Albert Camus influenced the detective novel are systematically examined. The developmental path from classical detective fiction to the existential detective genre is traced, and the philosophical deepening of the criminal and investigator images is demonstrated.

**Keywords:** existentialism, detective genre, absurd, freedom and responsibility, Heidegger, Sartre, Camus, Dostoevsky, philosophy of death, epistemology, literature of crisis.

**Kirish.** XX asr adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, ekzistensializm falsafasi bilan detektiv janrning bir-biriga yaqinlashuvi va oxir-oqibat bir-birini boyitib, o‘zgartirishi tasodifiy hodisa emasligini ko‘ramiz. Bu ikki soha bir xil tarixiy muhitda – ikki jahon urushi orasidagi va undan keyingi davrning inqiroz kayfiyatida, insonning o‘z-o‘ziga va dunyoga bo‘lgan ishonchi yo‘qolib qolgan paytda – pishib yetildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar ekzistensializm bu inqirozni falsafiy tushuntirishga uringan bo‘lsa, detektiv roman uni syujet shakliga soldi, unga badiiy libos kiydirdi. Bu ikki sohaning keyinchalik o‘zaro ta’sir qilishi va bir-biriga singib ketishi ana shunday umumiy zamin ustida ro‘y berdi. Ushbu maqolada ekzistensializm falsafasining asosiy g‘oyalari batafsil

ko'rib chiqiladi, so'ngra bu g'oyalarning detektiv janrga kirib kelish yo'llari va mexanizmlari izchil tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ekzistensializm falsafasini bir ta'rifga, bir formulaga sig'dirish qiyin – aslida deyarli mumkin emas ham, chunki bu bitta maktabning emas, balki bir-biriga ko'pincha zid keladigan mutafakkirlar guruhining umumiy nomi. Seren Kyerkegor, Martin Xaydegger, Jan-Pol Sartr, Albert Kamyu, Simona de Bovuar, Karl Yaspers – ularning orasida chuqur ixtiloflar bor, hatto ayrim masalalarda to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshiliklar mavjud. Lekin barcha bu mutafakkirlar bitta umumiy muammo atrofida birlashadilar: inson o'z mavjudligini qanday yashaydi? Bu savol birinchi qarashda oddiy tuyulishi mumkin, lekin uning ortida inson tabiati, erkinlik, ma'no, o'lim va mas'uliyat haqidagi eng og'ir masalalar yotadi. Ekzistensializm ana shu masalalar uchun qulay, bir ma'noli javob berish o'rniga, ularni imkon qadar to'g'ridan-to'g'ri va dadillik bilan ko'tarishga intilgan – bu o'zi katta jasorat talab qiladigan intellektual pozitsiya edi.

Ekzistensializm tarixini Seren Kyerkegordan boshlash to'g'ri bo'ladi, garchi u bu atamani o'zi hech qachon ishlatmagan bo'lsa ham. XIX asr daniyalik faylasuf Kyerkegor o'z davridagi sistemali falsafaga, ayniqsa, Gegel va uning hamma narsani mantiqiy kategoriyalarga siqib tushuntirishga urinishiga – qarshi chiqdi.[14] Gegel uchun inson umumiy tarix va umumiy ruh (Geist) harakatining bir bo'lagi edi; individual shaxs bu katta sxemada o'z o'rnini topadi va ma'noga ega bo'ladi. Kyerkegor esa bunga keskin e'tiroz bildirdi: individual, yakkaxon inson hech qachon umumiy sxemaga sig'dirib bo'lmaydigan bir mavjudotdir. Uning qo'rquvlari, ishqiy iztiroblari, Xudo oldidagi qo'rquvi – ularni hech qanday mantiqiy kategoriyaga joylashtirish mumkin emas.[1] Kyerkegor shaxsiy hayotining og'ir tajribalari – otasi bilan murakkab munosabati, sevgan yoriga uylanolmasligi, cherkov bilan to'qnashuvi – bu falsafiy pozitsiyaning asosi bo'ldi. Inson avvalo mavjud, deb yozdi u, va bu mavjudlik hech qachon to'liq tushuntirilmaydi, hech qachon tizimga solinmaydi.

Kyerkegordan so'ng bu yo'nalish turli shakllar oldi, lekin eng muhim va eng ta'sirli qadam Martin Xaydegger tomonidan qo'yildi. Uning 1927 yildagi "Sein und Zeit" – "Mavjudlik va vaqt" – asari XX asr falsafasining tarixi deb tan olingan asarlaridan biri bo'lib, u ekzistensializm uchun muhim bir tushuncha tizimini ishlab chiqdi.[2] Xaydegger insonni Dasein – so'zma-so'z tarjimada "u yerdagi mavjudlik" – deb atadi. Bu atama g'alatidek tuyulishi mumkin, lekin Xaydeggerning maqsadi aniq edi: inson boshqa narsalar kabi shunchaki mavjud emas, u o'z mavjudligi haqida so'ray oladigan, uni muammo qilib ko'ra oladigan yagona mavjudotdir [2.41–53]. Sodda qilib tushuntiradigan bo'lsak, tosh mavjud, lekin o'z mavjudligini bilmaydi. Inson esa o'z mavjudligini biladi – va aynan bu bilish uni noyob qiladi, ayni vaqtda bu bilish uning eng og'ir yukiga ham aylanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tarixiy-falsafiy, qiyosiy-tahliliy hamda adabiy-estetik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Ekzistensializm

namoyandalari g'oyalari va detektiv janr namunalarini o'zaro solishtirish orqali ularning o'zaro ta'sir mexanizmlari tahlil qilindi. Shuningdek, badiiy matnlar asosida obrazlar va syujet qurilishining pragmatik hamda falsafiy xususiyatlari izchil o'rganildi.

**Tahlillar va natijalar.** Detektiv romanda o'lim har doim markazda turadi. Klassik detektivda qurbon o'limi – asarning boshlanish nuqtasi, syujet harakatini ishga soluvchi mexanizm. Lekin u ko'pincha "klinik o'lim" bo'lib qoladi: muhim bo'lgan narsa kim o'ldirdi va nima uchun, qurbon esa ko'pincha syujet boshlanishidan oldin o'lik holda topiladi va asarning qolgan qismida real mavjudligi sezilmaydi. [16.137] Ekzistensial detektiv romanda esa o'lim boshqacha og'irlik kasb etadi. Qurbon faqat "kim qildi" savolining obyektini emas – u bir hayot yashagan, o'z qo'rquvlari va umidlari bo'lgan, o'z munosabatlari va ziddiyatlari bilan yashagan shaxs. Uning o'limi tergovchida ham, o'quvchida ham Xaydegger aytgan "o'lim oldida hushyor bo'lish" holatini uyg'otadi. [2.245–267] Bu o'lim nafaqat yechilishi kerak bo'lgan sir, balki hayotning nozikligini, insonning insondan nechog'lik ko'p narsa olishi yoki qanchalik ko'p narsa yo'q qilishi mumkinligini ko'rsatuvchi oyna hisoblanadi.

Jan-Pol Sartrning ekzistensializmi esa boshqacha yo'nalishdan kelib, lekin detektiv janr uchun alohida qimmatli tushunchalar berdi. Sartr uchun asosiy muammo erkinlik va mas'uliyat munosabati edi. Uning "mavjudlik mohiyatdan oldin keladi" degan mashhur tezisi ekzistensializm falsafasining qisqacha bayoni sifatida tez-tez keltiriladi. [4.26] Sartr buni quyidagicha tushuntirgan: agar Xudo bo'lmasa yoki hatto Xudo bo'lsa ham, inson uchun oldindan belgilangan bir "mohiyat" – muayyan maqsad, muayyan tabiat – mavjud emas. Qog'oz pichog'ini yasaydigan usta uni ishlatishdan oldin u nima bo'lishi kerakligini biladi – bu "mohiyat" ishlatishdan oldin mavjud. Lekin inson bunday emas. Inson avval dunyoga keladi, mavjud bo'ladi, keyin o'zini belgilaydi. [3.515–520]

Bu tushunchalar detektiv janrga nima berdi? Ko'p narsa. Birinchidan, jinoyatchi qahramonni ko'rish tarzini o'zgartirdi. Klassik detektivda jinoyatchi odatda "yovuz"lik bilan tasvirlangan, uning jinoyati ochko'zlik, qasos yoki boshqa tushunarli, lekin axloqan mahkum qilinadigan motivdan kelib chiqqan. Ekzistensial nuqtai nazardan esa jinoyatchi – o'z erkinligini muayyan bir yo'nalishda, boshqa inson zarar ko'rish bilan tugaydigan tarzda ishlatgan shaxs. [15.212] U buni "tabiat" yoki "taqdir" taqozosiga ko'ra qilmagan – u tanlagan. Bu tanlov tushunilishi kerak, chunki uni tushunmay turib haqiqiy mas'uliyatni aniqlash mumkin emas. Shu jihatdan ekzistensial detektiv roman jinoyatchini nafaqat fosh qiladi – u uni anglab yetishga urinadi, va bu ikki narsa orasida katta farq bor.

Ikkinchidan, Sartrning erkinlik va mas'uliyat falsafasi tergovchi qahramonni ham boshqacha ko'rsatishga imkon berdi. [3.4] Tergovchi endi faqat adolatning mexanik ijrochisi emas – u o'z tanlovlari bilan yashaydi, o'z metodlari va qarorlarining oqibatlarini ko'taradi. U tergov davomida bir necha marta qiyin axloqiy tanlov oldida turadi, va bu tanlovlarning har biri uning kim ekanligini shakllantirib boradi. Ekzistensializm ta'lim

berganidek, bu tanlovlar osonlashtiriladigan, hamma uchun to'g'ri bo'lgan qoidalar bilan hal qilinmaydi – ular har safar yangicha, yakkaxon holatni talab qiladi.

Detektiv romandagi so'roq sahnalarida aynan shu dinamikada eng to'liq namoyon bo'ladi. Tergovchi shubhalanuvchini obyektga aylantirmoqchi: uni ma'lum bir ta'rifga, ma'lum bir sxemaga sig'dirib, "ana mana jinoyatchi" yoki "ana mana yolg'onchi" demoqchi. Shubhalanuvchi esa o'zini subyekt sifatida saqlab qolmoqchi: men siz o'ylaganday emas, men boshqacha, men tushunilishini istayman. Bu faqat taktik o'yin emas – bu ikki inson o'rtasidagi ekzistensial to'qnashuv, ikki erkin mavjudotning bir-birini aniqlashga va bir-birining aniqlashidan qochishga urinishi. Sartr bu to'qnashuvni "boshqa insonning haqiqiy muammosi" deb atadi – boshqa inson ham men kabi erkin va noyob mavjudot, lekin ayni vaqtda u meni belgilashga, men esa uni belgilashga urinib turamiz. [3.430–445]

Albert Kamyuning absurd falsafasi ekzistensializm ichidagi boshqa yo'nalishni ifodalaydi va detektiv janrga eng bevosita, eng ko'zga tashlanadigan ta'sir ko'rsatgan yo'nalish ham shu bo'ldi. [6] Kamyu absurdni shunday tavsifladi: inson ma'no izlaydi, lekin dunyo bu izlashga javob bermaydi. Bu "indamaslik" – olamning inson talabiga befarq qolishi – absurdning mohiyati hisoblanadi. Inson "nima uchun?" deb so'raydi, dunyo esa sukut saqlaydi. Bu holatdan uchta chiqish yo'li bor, deydi Kamyu: birinchi yo'l – jismoniy o'z joniga qasd qilish; ikkinchi yo'l – "falsafiy o'z joniga qasd qilish", ya'ni dinga yoki biror katta g'oyaga berilib, absurd haqiqatdan ko'z yumish; uchinchi yo'l – absurdni to'la ko'z ochib ko'rish va shunga qaramay, shunga isyon bilan qarshi turib yashashni davom ettirish. [6.54–78] Kamyu faqat uchinchi yo'lni halol va insoniy deb hisobladi. Kamyu absurd falsafasini badiiy asarlar orqali ham ifodaladi, va bu badiiy asarlar ekzistensial detektiv roman tarixida alohida o'rin tutadi. 1942-yilgi "Begona" – "L'Étranger" – asarini ko'p tadqiqotchilar ekzistensial detektiv romanining prototipi deb ataydi. [5]

Mashhur rus yozuvchisi, filosof F.Dostoyevskiyni ekzistensializm vakillari qatoriga qo'yish tarixiy jihatdan noto'g'ri bo'lar edi chunki u XIX asr rus yozuvchisi va bu falsafiy harakat ancha keyinroq shakllangan. Lekin Sartr, Kamyu va Xaydegger o'zlari Dostoyevskiyni o'z salaflaridan biri deb hisoblagan, va bu bejiz emas. [15.3-18] Dostoyevskiyning romanlari, ayniqsa "Jinoyat va jazo" va "Aka-uka Karamazovlar" ekzistensializm keyinroq sistemali tarzda ifodalagan muammolarni badiiy to'qimada birinchi bo'lib ko'tardi. "Jinoyat va jazo"dagi Raskolnikov [7.45–60] – o'z qilgan ishini falsafiy asoslashga uringan, "oddiy" va "qo'shimcha" odamlar haqidagi nazariyasini amalda sinovdan o'tkazmoqchi bo'lgan, lekin haqiqiy mas'uliyatdan qocha olmagan qahramon – ekzistensial detektiv janrining eng ulkan adabiy prototipi hisoblanadi.

Endi detektiv janrning o'z tarixiy rivojiga qaytaylik va ekzistensial ta'sirlarning qanday kirib kelganini ko'rib chiqaylik. Janrning asoschisi deb hisoblanadigan Edgar Allan Poning Dyupen hikoyalari [9] va Artur Konan Doylning Sherlock Xolms [10]

detektiv romanining "klassik" modelini o'rnatgan hisoblanadi. Bu modeldagi tergovchi – kuchli aqlning vakilidir. Xolms uchun hamma narsa anglanishi mumkin, hamma iz o'z izohini topadi, hamma sir yechiladi. "Elementary, my dear Watson" – bu nafaqat ibora, bu bir dunyoqarash: dunyo tartibli va anglanishi mumkin, faqat yetarlicha aql va kuzatuvchanlik kerak. [16.136]

Agata Kristi bu yo'nalishni yanada takomillashtirdi. Uning "Erkyul Puaro" va "Miss Marpl" romanlari[11] janrning intellektual o'yin sifatidagi tabiatini to'la namoyon qildi: muallif o'quvchiga adolatona barcha izlarni beradi, o'quvchi esa tergovchi bilan raqobatlashib, javobni topishga urinadi. Ushbu janr bu davrda juda aniq qolipga ega edi: sir yechiladi, jinoyatchi topiladi, adolat tiklanadi, tartib qayta o'rnatiladi. Bu qoidalar janrning "sof intellektual o'yin" sifatidagi holatini mustahkamladi.

Lekin allaqachon janrning o'z ichida buning buzila boshlagani ko'rinib turardi. Amerika "qora roman" (hard-boiled fiction) maktabi – Deshil Xemmet va Raymond Chandler boshchiligida [12;13] – klassik modeldan sezilarli darajada chetlasha boshladi. Xemmetning asarlarida qahramonlar adolat tizimiga ham, jamiyatga ham shubha bilan qaraydi. [12.89–110] Ularga haqiqatni to'la topish emas, balki muayyan bir odamga nisbatan nisbiy adolatni ta'minlash kifoya hisoblanadi. Lekin bu maktab falsafiy jihatdan ekzistensializm bilan ongli muloqolda emas edi – u ko'proq Amerika depressiya davrining ijtimoiy haqiqatlaridan kelib chiqqan edi.

Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davr detektiv janrni ham, falsafiy muhitni ham keskin o'zgartirdi. Xolokost, Xiroshima va Nagasaki – bu voqealar insoniyatning o'z-o'ziga bo'lgan tasavvurini bir umrga o'zgartirdi. Endi inson nima qila olishi haqida, odamzodning tubiga nima yashiringani haqida ilgarigidek gapirish mumkin emas edi. [15.198–205] Shu muhitda ekzistensializm nafaqat akademik falsafa emas, balki hayot falsafasiga aylandi – odamlar undan inqirozni tushunish uchun, o'z mas'uliyatlarini qayta aniqlash uchun foydalanardi. Va bu muhit detektiv janrni ham o'zgartirdi.

Aynan shu davrdan boshlab ekzistensial ta'sirlar detektiv romanga sekin-asta, lekin aniq va izchil tarzda kirib kela boshladi. [16.140–148] Bu ko'pincha Yevropa adabiyotida, ayniqsa Fransiya va Skandinaviyada ko'zga tashlanadigan tarzda sodir bo'ldi, garchi ingliz va Amerika adabiyotida ham kuchli namunalar bo'lsa ham. Bu ta'sirning birinchi ko'rinishi – jinoyatchi qahramonni tasvirlash tarzidagi o'zgarish hisoblanar edi. Ekzistensial ta'sir ostidagi romanlarda jinoyatchi endi bir o'lchamli "yovuz" emas – u tushunilishi kerak bo'lgan, hatto ba'zan hamdardlik uyg'otadigan, o'z holatining qurboni va ayni vaqtda o'z tanlovining mas'uli bo'lgan shaxs. Bu ikki xususiyat – qurbonlik va mas'uliyat – bir vaqtda mavjud bo'la oladi: inson muayyan sharoitlar taqozosida muayyan holatga kelgan bo'lishi mumkin, lekin bu uni mas'uliyatdan to'la ozod qilmaydi. [3.553–556]

Ekzistensial ta'sirning ikkinchi muhim ko'rinishi – tergovchi qahramonning o'zgarishidir. Ekzistensial detektiv romanda tergovchi ko'pincha o'z shaxsiy yo'qotishlari,

travmasi va hal qilinmagan ziddiyatlari bilan yashaydi. Bu shaxsiy yuk tergov jarayoni bilan to'qnashadi va ularning o'zaro ta'siri asarning asosiy dramatik materiali bo'ladi. Tergovchi o'z tergov qilayotgan jinoyatida o'z hayotidagi biror narsaning aksini ko'radi – va bu aks sado uni ham professional, ham shaxsiy jihatdan tekshirib qo'yadi.

Ekzistensial ta'sirning uchinchi muhim ko'rinishi – yechimning to'liq yoki qoniqarli bo'lmasligi hisoblanadi. Klassik detektiv janrda yechim shart bo'lsa, ekzistensial detektiv romanda ko'pincha jinoyat rasman yechilsa ham, uning chuqurroq ma'nosi – nima uchun bu sodir bo'lgani ochiq qoladi.

Shu o'rinda muhim bir savolga to'xtalish kerak: nima uchun aynan detektiv janr ekzistensializm g'oyalarini o'ziga shunchalik organik tarzda qabul qildi? Javob bir necha qatlamlidir. Birinchidan, detektiv roman o'z tabiatiga ko'ra epistemologik muammo bilan shug'ullanadi – bilish muammosi bilan. Bunda tergov o'tmishni qayta tiklashga urinishi, yo'qolgan haqiqatni ko'rib chiqishga harakat hisoblanadi. Bu epistemologik jihatdan deyarli imkonsiz vazifa: o'tmish hodisani hech kim butunligicha ko'rmagan, barcha guvohlar o'z cheklangan nuqtai nazaridan ko'rgan, dalillar esa doimo to'liq emas va turlicha talqin qilinishi mumkindir.

Ikkinchidan, detektiv roman o'z tabiatiga ko'ra axloqiy muammo bilan shug'ullanadi – jinoyat, mas'uliyat, adolat muammolari bilan. Bu masalalar ekzistensializm uchun ham markaziy hisoblanadi. Uchinchidan, jinoyat – ayniqsa, qotillik, o'lim mavzusini bevosita ko'taradi, va ekzistensializm ham o'z mohiyatida o'lim va uning ma'nosi haqidagi falsafa hisoblanadi. Shu jihatdan bu ikki sohaning bir-biriga yaqinlashuvi nafaqat tasodif balki ma'lum darajada muqarrar, bir-birini kutayotgan hodisalar edi.

**Xulosa.** Tarixiy va falsafiy jihatdan ko'rib chiqqan bu yo'l – Kyerkegordan Xaydegger va Sartrga, Kamyudan Dostoyevskiyga, klassik detektivdan "qora roman"ga va nihoyat ekzistensial detektiv romanga – bir xulosa bilan yakunlanadi: ekzistensializm detektiv janrni yo'q qilmadi, uning janrligini olgani yo'q. U janrni imkoniyatlarni kengaytirdi, unga yangi savol va yangi chuqurlik berdi. Syujet endi faqat "kim qildi" savolini hal qilish vositasi emas – u insonning o'z mavjudligiga duch kelish jarayonini ko'rsatish uchun qurilma bo'ldi. Tergov faqat jinoyatni yechish jarayoni emas – u tergovchining ham, o'quvchining ham o'z-o'zi bilan yuzlashish jarayoni. Jinoyatchi faqat fosh qilinishi kerak bo'lgan "yovuz" emas – u tushunilishi kerak bo'lgan, ekzistensial ma'noda – o'z erkinligi va mas'uliyati bilan yashagan shaxsdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kyerkegor S. Qo'rquv va titroq. – Toshkent: Yangi nashr, 2010. – 180 b.
2. Xaydegger M. Sein und Zeit. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1927. – 445 S. [Heidegger M. Being and Time / Transl. by J. Macquarrie, E. Robinson. – New York: Harper & Row, 1962. – 589 p.]
3. Sartr J.-P. L'Être et le Néant. Essai d'ontologie phénoménologique. – Paris: Gallimard, 1943. – 722 p. [Sartre J.-P. Being and Nothingness / Transl. by H. Barnes. – New York: Washington Square Press, 1984. – 798 p.]

4. Sartr J.-P. L'Existentialisme est un humanisme. – Paris: Nagel, 1945. – 142 p. [Sartre J.-P. Existentialism Is a Humanism / Transl. by C. Macomber. – New Haven: Yale University Press, 2007. – 112 p.]
5. Kamyu A. L'Étranger. – Paris: Gallimard, 1942. – 159 p. [Camus A. The Stranger / Transl. by M. Ward. – New York: Vintage International, 1989. – 123 p.]
6. Kamyu A. Le Mythe de Sisyphe. Essai sur l'absurde. – Paris: Gallimard, 1942. – 187 p. [Camus A. The Myth of Sisyphus / Transl. by J. O'Brien. – New York: Vintage, 1991. – 212 p.]
7. Dostoyevskiy F.M. Jinoyat va jazo / Tarj. S. Barnoev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2005. – 560 b.
8. Dostoyevskiy F.M. Aka-uka Karamazovlar / Tarj. S. Barnoev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2008. – 896 b.
9. Po E.A. The Complete Tales and Poems of Edgar Allan Poe. – New York: Vintage Books, 1975. – 842 p.
10. Konan Doyle A. The Complete Sherlock Holmes. In 2 vols. – New York: Doubleday, 1930. – Vol. 1. – 544 p.; Vol. 2. – 578 p.
11. Kristi A. The Murder of Roger Ackroyd. – London: Collins Crime Club, 1926. – 312 p.
12. Xemmet D. The Maltese Falcon. – New York: Alfred A. Knopf, 1930. – 217 p.
13. Chandler R. The Big Sleep. – New York: Alfred A. Knopf, 1939. – 231 p.
14. Gegel G.V.F. Fenomenologiya duxa / Perv. G. Shpet. – Moskva: Nauka, 1992. – 444 s. [Hegel G.W.F. Phenomenology of Spirit / Transl. by A.V. Miller. – Oxford: Oxford University Press, 1977. – 595 p.]
15. Kaufmann W. Existentialism from Dostoevsky to Sartre. – New York: Meridian Books, 1956. – 320 p.
16. Holquist M. Whodunit and Other Questions: Metaphysical Detective Stories in Postwar Fiction // New Literary History. – 1971. – Vol. 3. – №1. – P. 135–156.
17. Ganiyeva, O. X. "XX asr AQSH regional romani badiiy o 'ziga xosligi." Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 3.14 (2024): 43-45.
18. Khayriddinovna, Ganieva Orzigul. "ANTHROPOCENTRIC APPROACH IN CONTEMPORARY AMERICAN AND UZBEK NOVEL WRITING." International Journal Of Literature And Languages 4.12 (2024): 55-59.
19. Khayriddinovna, Ganieva Orzigul, and Turayeva Dilorom Rustamjonovna. "Description of Perseverance in Eudora Welty's Short Story "A Worn Path". Miasto Przyszłości, 42, 722–725." 2023.
20. Ganieva, Orzigul Khayriddinovna. "Depiction Of Relations Between A Person And Society In American Realistic Literature." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.8 (2020): 215-220.